


SIRDARYO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2025-yil 1-iyul holatiga ko'ra

- I. Korxona va tashkilotlarning soni
- II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar
- III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
- IV. Korxona va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

I. Korxona va tashkilotlarning soni

2025-yil 1-iyul holatiga ko'ra, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (dehqon va fermer xo'jaliklari bundan mustasno) 12 027 tani tashkil etdi, shundan 9 896 tasi yoki 82,3 foizi kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri keladi.



Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (birlikda).



Soni



O'sish sur'ati

Yil	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
2025	12 027	9 966	9 896
2024	12 129	9 977	9 912
2023	13 405	11 283	11 223
2022	16 515	14 400	14 334
2021	16 179	14 150	14 094

Hududlar bo'yicha eng ko'p faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar Guliston shahrida – 25,1 foiz, Sirdaryo – 12,3 foiz, Boyovut – 9,0 foiz, Mirzaobod – 8,9 foiz va Sardoba – 8,7 foiz tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda.

Tadbirkorlik subyektlarining faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiy sonidagi salmoqli ulushi Sardobada – 88,0 foiz, Yangiyer shahrida – 87,8 foiz, Mirzaobod – 85,7 foiz hamda Oqoltin – 84,7 foiz tumanlariga to'g'ri keldi.

Hududlar	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
Sirdaryo viloyati	12 027	9 966	9 896
<i>Tuman va shaharlar:</i>			
Guliston shahri	3 016	2 467	2 446
Yangiyer shahri	860	755	753
Shirin shahri	279	217	214
Boyovut tumani	1 085	867	862
Guliston tumani	878	723	722
Mirzaobod tumani	1 065	913	905
Oqoltin tumani	777	658	657
Sayxunobod tumani	832	676	670
Sardoba tumani	1 043	918	912
Sirdaryo tumani	1 477	1 225	1 212
Xovos tumani	715	547	543

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)


[Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

Korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ma'lumotlar

2025-yil 1-iyul holatiga faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari eng ko'p qismi "Savdo" tarmog'ida bo'lib, uning jami sonidagi ulushi 30,6 foizni tashkil etdi.

Ikkinchi o'rinda "Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi" 16,5 foizni, uchinchi o'rinda "Sanoat" 10,1 foizni;

Birgalikda ushbu uch turdagi faoliyat ularning umumiy sonining 57,2 foizdan ortig'ini tashkil qiladi.



Korxona va tashkilotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
Jami:	12 027	9 966	9 896
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	1 981	1 966	1 956
Sanoat	1 210	1 205	1 176
Qurilish	856	846	841
Savdo	3 683	3 682	3 678
Tashish va saqlash	281	279	278
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	693	691	690
Axborot va aloqa	188	178	176
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	200	141	137
Boshqa turlar	2 935	978	964

II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar

2025-yil 1-iyul holatiga ko'ra, 9 966 ta faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalaridan 8 545 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar tashkil etilgan bo'lib, ular tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinda turadi.

Tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)

	2021	2022	2023	2024	2025
Mas'uliyati cheklangan jamiyat	10 458	11 233	9 409	8 471	8 545
Xususiy korxonalar	2 945	2 428	1 331	1 003	958
Oilaviy korxonalar	361	351	241	304	286
Aksiyadorlik jamiyati	22	20	14	12	12
Boshqalar	364	368	288	187	165

Shundan kelib chiqib, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar mamlakatimizda biznes yuritishning eng keng tarqalgan shakli degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Tashkiliy-huquqiy shakli	Tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)	Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi (foizda)
Mas'uliyati cheklangan jamiyat	8 545	85,7
Xususiy korxonalar	958	9,6
Oilaviy korxonalar	286	2,9
Aksiyadorlik jamiyati	12	0,1
Boshqalar	165	1,7

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyat soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar soni \(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni \(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, oylik\)](#)

III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

Mamlakatimizda to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish uchun eng qulay investitsiya muhitini yaratish maqsadida iqtisodiyotni liberallashtirish, tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga aralashuvni cheklash, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini qisqartirish va soddalashtirish, investitsiyalardan erkin foydalanishni ta'minlash shuningdek, hududlarda zarur infratuzilmani yaratish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Natijada har yili xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar ko'payib bormoqda.

Hududlar kesimida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat yuritayotgan korxonalarning jami soniga nisbatan eng katta ulushi Sirdaryo tumani 25,1 foiz, Guliston shahri – 21,0 foiz, Yangiyer shahri – 14,4 foiz va Mirzaobod tumani – 8,6 foizga to'g'ri keladi.


Hududlar	Jami:	shundan:	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
Sirdaryo viloyati	243	82	161

Tuman va shaharlar:

Guliston shahri	51	13	38
Shirin shahri	11	5	6
Yangiyer shahri	35	10	25
Boyovut tumani	18	3	15
Guliston tumani	7	1	6
Mirzaobod tumani	21	11	10
Oqoltin tumani	5	2	3
Sardoba tumani	7	4	3
Sayxunobod tumani	9	2	7
Sirdaryo tumani	61	28	33
Xovos tumani	18	3	15

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 243 ta korxonalardan 82 tasi qo'shma korxonalar va 161 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.



Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar

2025-yilning 1-iyul holatiga ko'ra, xorijiy investitsiyalar ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning soni, 2024- yilning mos davriga nisbatan 39 taga oshgan. Bu asosan, sanoat sohasidagi korxonalar sonining 92 tadan 121 taga, (o'sish 29 taga), axborot va aloqa sohasida 14 tadan 24 taga (o'sish 10 taga) va tashish va saqlash bo'yicha xizmatlar sohasida 5 tadan 8 taga (o'sish 3 taga) ko'payishi bilan bog'liq.

	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
Jami:	243	82	161
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	29	13	16
Sanoat	121	45	76
Qurilish	6	3	3
Savdo	41	11	30
Tashish va saqlash	8	5	3
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2	1	1
Axborot va aloqa	24	-	24
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	-	-	-
Boshqa turlar	12	4	8

Ayrim davlatlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar tahlil qilinganda, yetakchi o'rinni 100 ta korxona bilan Xitoy davlati egalladi. Bu viloyatdagi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 41,2 foizini tashkil etdi. O'zbekiston iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritib hissasini qo'shayotgan mamlakatlar orasida Rossiya Federatsiyasi (13,2 %), Turkiya (10,3 %), Qozog'iston (7,0 %) va Tojikiston (6,6 %) ham alohida o'rin egallaydi.

Davlatlar	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
Xitoy	100	28	72
Rossiya	32	12	20
Turkiya	25	9	16
Tojikiston	16	6	10
Qozog'iston	17	8	9
Afg'oniston	13	4	9
Qirg'iziston	7	2	5
BAA	7	1	6
Buyuk Britaniya	6	3	3
Janubiy Koreya	5	-	5
Ozarbayjon	5	3	2
Pokiston	4	2	2
AQSH	2	2	1

IV. Korxona va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va uning asosida davlat xizmatini ko'rsatishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 539-son qaroriga muvofiq Korxonalar va tashkilotlarning ma'lumotlari statistik tasniflagichlarga asosan shakllantiriladi.

Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2025-yil 1-iyul holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Metama'lumot uchun havolalar:

[Metama'lumot Korxonalar va tashkilotlar soni](#)

[Glossariy](#)

[Statistik klassifikatsiyalar](#)

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyati soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni \(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, oylik\)](#)

[Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sanoat yo'nalishida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Qurilish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Savdo sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Tashish va saqlash xizmatlari sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Axborot va aloqa sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sog'ligni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

Tayyorlash uchun mas'ul:

Raqamlashtirish va statistik
regisrlarni yuritish bo'limi

Ijrochi:

B. Axmedov
67 236-70-00 (2060)

Maznil:

120100, Guliston sh.,
Birlashgan ko'chasi, 62
